

The word "elita" is written in a white, lowercase, sans-serif font. A stylized feather graphic is positioned between the 'e' and 'l'. Above the 'i' is a small orange circle with the letters "uz" in white.

elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.3 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> INNOVATSION TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA MOHIYATI	3
<i>Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI KORRUPSIYAVIY HOLATLARNI SODIR ETUVCHI SHAXSLAR TASNIFI	19
<i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i> O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TABIATI	26
<i>Qozixonova Duraxshon Nasriddinovna</i> ISLOM HUQUQIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA HALOLLIK TAMOYILI	33
<i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i> ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARGA OID QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	42
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> SUD ISHLARINI YURITISHDA SHAFFOFLIKNI TAMINLASH ZARURATI VA MOHIYATI	52

INNOVATSION TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li | fabdihakimov@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy munosabatlarning har bir jabhasiga innovatsion faoliyatni kiritishni talab qilmoqda, xususan tadbirkorlik faoliyatiga innovatsiyalarning jalb qilinishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion munosabatlarni huquqiy tartibga solish holati odatda tizimsizligi va yagona kompleks yondashuvning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan innovatsion tadbirkorlik faoliyati jarayonini nazariy tushunish va tartibga soluvchi loyihalarni ishlab chiqish zarurati tug'iladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, innovatsiya, tadbirkorlik faoliyati, xizmat, modernizatsiya, innovatsion loyiha.

THE CONCEPT AND ESSENCE OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP

Abdihakimov Farhod Zafar ugli

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. The development of the digital economy in Uzbekistan requires the integration of innovative practices into various aspects of social interaction, particularly in business activities. However, the current state of legal regulation for innovation-related activities lacks consistency and a unified approach. This necessitates a theoretical understanding of the process of innovation-driven business and the development of appropriate regulatory frameworks.

Key words: digital economy, innovative activity, innovation, entrepreneurial activity, service, modernization, innovative project.

ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Абдихакимов Фарход Зафар угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Сегодня формирование и развитие цифровой экономики в Узбекистане требует включения инновационной деятельности во все аспекты общественных отношений, в частности, особое значение приобретает вовлечение инноваций в предпринимательскую деятельность. Состояние правового регулирования инновационных отношений обычно характеризуется несистемностью и отсутствием единого комплексного подхода. В связи с этим возникает необходимость теоретического осмысления процесса инновационной предпринимательской деятельности и разработки нормативных проектов.

Ключевые слова: цифровая экономика, инновационная деятельность, инновации, предпринимательская деятельность, сервис, модернизация, инновационный проект.

Kirish. Aholi farovonligini yuqori darajada ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish uchun hamda mamlakatimizning dunyo arenasida geosiyosiy mavqeini mustahkamlash uchun bugungi kunning asosiy talablaridan biri bu mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish modeliga o'tkazishdir. Bu o'z o'rnida mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilinda va mazkur Strategiyada asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lib, bular:

innovatsion infratuzilma subyektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash;

yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;

yaratilgan kapitalni "tubdan yangilovchi" innovatsiyalarga qayta yo'naltirish tizimini shakllantirish;

ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.[1]

Ko'rib turganimizdek, Strategiyaning asosiy yo'nalishlarida ham asosiy urg'u innovatsion infratuzilma subyektlariga, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga, shuningdek, har bir innovatsion g'oyani rag'batlantirishga berilgan.

Asosiy qism. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur Farmon bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlangan.

Ushbu Strategiyada ham mamlakatni innovatsion rivojlantirishga, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab berilgan. Biroq, shuni aytishimiz joizki, "innovatsion tadbirkorlik" tushunchasining tub mohiyati mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda to'la yoritib berilmagan.

Bilamizki, tadbirkorlik – bu iqtisodiyotning drayveri hisoblanadi, bugungi kunda esa innovatsion tadbirkorlik davr talabi bo'lib, uni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini ham, aholining iqtisodiy farovonligini ham ta'minlash mumkinligi hech kimga sir emas. Innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatida qo'llash orqali shunday natijalarga erishishimiz mumkinki, ushbu natijalarga

oddiy usullar bilar erishishning imkoni yo‘q yoki erishish juda qiyin kechadi, shu sababli ham yildan-yilga innovatsiyalarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatni innovatsion ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojlanish modeliga o‘tkazish uchun avvalo hayotning har bir yo‘nalishida innovatsiyalarning rivojlanishini ta‘minlovchi qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur bo‘ladi, xususan tadbirkorlik faoliyatida ham. Bunday qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun esa bugungi kunda innovatsiyalarga yaratilgan shart-sharoitlarni va ularning ishlash mexanizmini analiz qilish orqali, shuningdek, innovatsion faoliyatning qonunchiligimizdagi huquqiy asoslarida mavjud bo‘shliqlarni va kamchiliklarni aniqlash orqali erishishimiz mumkin. Bu shu qatorda yuqorida sanab o‘tgan maqsadlarimizga erishish uchun ham alohida bir yo‘l sanaladi.

Biroq, innovatsion tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini samaradorligini aniqlash va uni oshirish uchun “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat” va “innovatsion tadbirkorlik faoliyati” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini va so‘nggi ikki tushunchaning o‘zaro nisbatini aniqlashimiz va ushbu tushunchalarning tub mohiyatini bilib olishimiz zarur bo‘ladi.

“Innovatsiya” atamasini ilk bor yangi iqtisodiy toifa sifatida avstriyalik olim Yozef Shumpeter XX asrning birinchi o‘n yilligida kiritgan bo‘lib, u o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli asarida innovatsiya masalalari va innovatsion jarayonga to‘liq tavsif beradi.[2]

Uning ta‘rifiga ko‘ra, innovatsiya bu – iste‘mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o‘zgarishlardir.

Rus olimi I.T.Balabanovning fikriga ko‘ra, innovatsiya – kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir.[3]

Quyida “innovatsiya” tushunchasiga professional adabiyotlarda uchraydigan boshqa ta‘riflarni keltirib o‘tamiz.

1.1.-jadval

Ta‘rif	Manbaa
--------	--------

Innovatsiya – ilmiy-tadqiqot va tajribakonstruktorlik ishlari (ITTKI) natijalarini bozorga yetkazish	Большой толковый словарь бизнеса. М.: Вече : АСТ, 1998
Innovatsiya (yangiliklar kiritish) – yangi mahsulot turlari, texnologiyalar ishlab chiqish, yaratish va tarqatishga, yangi tashkiliy shakllar joriy qilishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat natijasi.	Борисов А.Б. Большой экономический словарь. М.: Книжный мир, 2000
Innovatsiya – intellektual mahsulot – ixtiro, axborot, nou-xau yoki g'oya iqtisodiy mazmunga ega bo'ladigan jarayon.	Брайан Т. Управление научно-техническими нововведениями. М.: Экономика, 1989
Innovatsiya – bozorga mavjud taklif bilan ta'minlanmagan ehtiyojlarni qondiradigan mahsulot olib chiqishga qodir bo'lgan, maxsus ishlab chiqilgan texnologiyaga asoslangan yangi mahsulot liniyasini o'zlashtirish.	Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и инновации. М.: Филин, 1997

Innovatsiya – ishlab chiqarish mexanizmining boshlang'ich strukturasidagi o'zgarish, ya'ni uning ichki strukturasini yangicha holatga o'tishi; mahsulot, texnologiya, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchining professional va malakaviy strukturasiga taalluqli; ham ijobiy, ham salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga ega bo'lgan o'zgarishlar	Валента Ф. Управление инновациями. М.: Прогресс, 1985
Innovatsiya – tizim sifatida korxona faoliyatidagi maqsadli o'zgarish (korxona faoliyatining istalgan sohasida sifat va son o'zgarishlari)	Волдачек Л. Стратегия управления инновациями на предприятии. М.: Экономика, 1989
Innovatsiya – yangi ijtimoiy ehtiyoj (yoki ma'lum bo'lgan ehtiyojni yaxshiroq qondirish) uchun yangi amaliy vosita (yangilik) yaratish, tarqatish va undan foydalanish kompleksli jarayoni; shu bilan bir paytda bu – ushbu yangilik bilan uning hayotiylik davri yakunlanadigan ijtimoiy va buyum holatidagi muhitda bog'liq bo'lgan o'zgarishlar jarayoni	Гвишиани Д.М. Диалектикоматериалистические основания системных исследований //Диалектика и системный анализ. М.: 13 Наука,1986
Innovatsiya – ITTKI, marketing va boshqaru sohalarining o'zaro aloqalari natijasi	Гольдштейн Г.Я. Инновационный менеджмент //www.aup.ru/ books/
Innovatsiya – jamiyat hayotining u yoki bu jabhasida faoliyat jarayoni yoki uning natijalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan intellektual (ilmiy texnik) faoliyat natijalaridan foydalanish	Инновационный менеджмент: учеб. пособие. СПб.: Наука, 2000

Innovatsiya – amaliyotda qo'llanadigan hamda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablarni qoniqtiradigan, mos keluvchi sohalarda samara beradigan ilmiy ixtiro yoki kashfiyotlar.	Канторович Л.В. Системный анализ и некоторые проблемн научно-технического прогресса: Диалектика и системный анализ. М.: Наука, 1986
Innovatsiya – o'tkazilgan ilmiy tadqiqot amalga oshirilgan kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy qilingan, oldingilardan tamomila farq qiladigan ob'ekt.	Медынский В.Г. Инновационный менеджмент: учебник. М.: ИНФРА-М, 2002
Innovatsiya – sifat jihatidan yangi qarorlarni amaliyotga tatbiq etish, korxona strategiyasining mazmuni va strategiya mohiyati.	Раппопорт В. Диагностика управления: практический опыт и рекомендации. М.: Экономика, 1988
Innovatsiya – ijtimoiy, texnik, iqtisodiy jarayon, o'z xususiyatlari bo'yicha yaxshiroq mahsulot va texnologiyalar yaratishga olib keladigan ixtiro va g'oyalardan amaliy foydalanish, iqtisodiy foyda va qo'shimcha daromad olishga yo'naltiriladi, tadqiqot va loyihalardan tortib to marketinggacha bo'lgan barcha faoliyat turlarini qamrab oladi.	Санто Б. Инновация как средство экономического развития. М.: Прогресс, 1990
Innovatsiya – boshqaruv ob'ektini o'zgartirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa turdagi samara olish maqsadida yangiliklar joriy qilishning yakuniy natijasi.	Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. СПб.: Питер, 2004

Innovatsiya – boshqaruv ob’ektini o’zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik va boshqa turdagi samara olish maqsadida yangilikni joriy qilishning yakuniy natijasi	Ильенкова С.Д. Инновационный менеджмент: учебник. М.: ЮНИТИ, 1997
--	---

“Innovatsiya” tushunchasiga berilgan yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib aytadigan bo’lsak, innovatsiya bozor munosabatlarida yangi joriy qilingan yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko’rinishida yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuvda namoyon bo’ladigan innovatsion faoliyatning natijasidir.

Yuqoridagilarga asosan “innovatsiya” tushunchasini universal va hamma faoliyat sohalariga qo’llash mumkin bo’lgan tushuncha sifatida olishimiz mumkin. Shuni ham alohida ta’kidlab o’tishimiz kerakki, “innovatsiya” tushunchasi yuqorida nomi qayd etilgan olimlarning yondashuvlaridan kelib chiqib, ham jarayon ham faoliyat natijasi (mahsulot) sifatida qaraladi. Buni T.V.Efimtseva[4], L.E.Kaspina[5] va E.A.Mardanshinalarning[6] asarlarida ko’rishimiz mumkin.

Bunda “innovatsiya” tushunchasi o’zida “yangilik” (новшество) va “yangilik kiritish” (нововведение) kabi ikki atamani o’zida mujassamlashtirgan. G.M.Lanovaya “yangilik” (новшество) va “yangilik kiritish” (нововведение) tushunchalari o’zaro sinonim emas va yuridik fan tilida ularning ma’nolari mos kelmasligini ta’kidlagan.[7] S.I.Ojegovaning lug’atida “yangilik” (новшество) deganda yangi hodisa, yangi odat, yangi usul, ixtiro tushunilishi belgilangan.[8] Shu o’rinda esa “yangilik kiritish” (нововведение) atamasi “yangilik”ni (новшество) yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini anglatadi.[9] Shu sababli ham “yangilik” (новшество) va “yangilik kiritish” (нововведение) tushunchalari bir-biriga o’zaro sinonim tushunchalar emas. T.V.Efimtseva ham o’zining ishida “yangilik kiritish” (нововведение) bu “yangilik” (новшество) ishlatilayotganligini bildirishini ma’lum qilgan.

“Innovatsiya” tushunchasiga O’zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonunining 3-moddasida ta’rif berilgan bo’lib, unga ko’ra, innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo’llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga

erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma deb belgilangan.[10] Ko'rib turganimizdek, mamlakatimiz qonunchiligida "innovatsiya" tushunchasiga jarayon sifatida emas, balki uchu jarayonni bosib o'tgan tayyor ishlanma, ya'ni mahsulot sifatida ta'rif berilgan. Ushbu ta'rifda natijaga eltuvchi jarayon inobatga olinmagan.

"Innovatsiya" tushunchasining mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritgach, "innovatsion faoliyat" va "innovatsion tadbirkorlik" tushunchalarining ham mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ilm-fanda "nnovatsion faoliyat" tushunchasiga ta'rif berishda bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, M.V.Volinkinaning fikriga ko'ra ba'zi olimlar innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish va ishlab chiqarish uchun yagona jarayonda o'zaro bog'langan 28 xil turdagi ishlarning majmuidan iborat bo'lgan maqsadli va ijodiy faoliyat deb ta'riflasalar, boshqa yondashuvga asosan esa innovatsiya - bu foyda olish maqsadida innovatsiyadan foydalanish jarayoni, tijorat maqsadlarida, ya'ni bu tadbirkorlik faoliyati, boshqalar innovatsion faoliyatni yangi bilimlarni olish va uni bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan amalga oshirish bilan bog'liq tijorat faoliyati deb qaraladi.[11] M.V.Volinkinaning ta'riga asosan esa innovatsion faoliyat – bu mahsulot assortimentini kengaytirish va yangilash va sifatini oshirish, ularni ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

A.N.Vasilevning ta'rifiga asosan innovatsion faoliyat mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar assortimentini kengaytirish va yangilash, sifatini yaxshilash, ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini keyinchalik joriy etish va samarali joriy etish maqsadida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan bozorda foydalanish va tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.[12]

F.F.Bezdudniy, G.A.Smirnova va O.D.Nechaevalar inson faoliyatining har qanday sohasida yangi g'oyani amalga oshirish, bozorda mavjud talabni qondirishga hissa qo'shish va iqtisodiy samara berish jarayonini innovatsion jarayon sifatida e'tirof etadilar.[13]

Rossiya Federatsiyasining 1996-yil 23-avgustdagi 127-FZ-son "Ilm-fan va davlat ilmiy-texnika siyosati to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasida innovatsion faoliyatga aniq ta'rif berilgan bo'lib, innovatsion faoliyat (jumladan, ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, va tadbirkorlik faoliyati) bu – innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan, shuningdek, bu innovatsion

infratuzilmani yaratish va uni ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.[14] Bu yerda “innovatsion loyiha” deyilganda iqtisodiy samaraga erishish orqali innovatsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasida ham “innovatsion faoliyat” tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Innovatsion loyiha esa yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui sifatida belgilangan.

Ushbu ta'riflardan shuni anglashimiz mumkinki, innovatsion faoliyatdan eng asosiy maqsad iqtisodiy samaraga erishish hisoblanadi. Chunki, innovatsion faoliyat ham, innovatsion loyiha ham innovatsiyani amalga oshirish, uni amaliyotga joriy qilish uchun qilinadigan harakatlar majmui bo'lsa, innovatsiyadan asosiy ko'zlangan maqsad bu iqtisodiy samaraga erishishdir.

Xattoki ba'zi olimlar innovatsion faoliyatni innovatsion tadbirkorlik faoliyati sifatida baholaydi, vaholanki, innovatsion faoliyat o'z ichiga ilmiy, texnologik, moliyaviy faoliyat turlarini ham qamrab oladi. Masalan, yuridik fanlar nomzodi G.D.Otnyukova o'zining “Innovatsion faoliyatning tushunchasi va belgilari” ishida innovatsion faoliyat ko'proq keng ma'noda tushunilib, o'zida intellectual faoliyat natijasi va ushbu natijani yangi tovarlar kirgazishda namoyon bo'lishini bildiradi. Shuningdek, u innovatsion faoliyat bu tadbirkorlik faoliyati bo'lib, u ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasini (masalan, ixtiro) amaliyotga qo'llashga asoslangan degan fikrni ilgari suradi.[15] Uning ushbu ta'rifidan ko'rinib turibdiki, u innovatsion faoliyatni innovatsion tadbirkorlik sifatida baholamoqda. Biroq, G.D.Otnyukova tomonidan berilgan ushbu ta'rifni biz innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga berilgan to'liq ta'rif sifatida qaray olmaymiz, negaki, unda innovatsion tadbirkorlikning barcha zarur xususiyatlari qamrab olinmagan. Shuningdek, uning ushbu ta'rifida innovatsiyani ishlab chiqarish jarayoni hisobga olinmagan.

Yuridik fanlar nomzodi O.V.Sushkovaning ishida “innovatsion faoliyat” tushunchasiga boshqacha yondashuv aks ettirilgan, unga asosan innovatsion faoliyat – bu innovatsiyani ro'yobga chiqarish uchun amaliy harakatlarni

innovatsion siklning har bir bosqichidan o'tgan holda (bular: qidirish, yaratish, sinovlar o'tkazish, tekshirish va foyda olish yoki boshqa biror bir samarali maqsadga erishish uchun amalga kiritish) amalga oshirishdir, bunda amaliy harakat ixtirolar yoki har qanday faoliyat sohasidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.[16] Ushbu ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, unda tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy belgisi aks etgan, bu foyda olish belgisidir. Buni biz O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida belgilangan ta'rifdan ham bilishimiz mumkin, unga ko'ra tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Muallifning ushbu ta'rifidan ma'lum bo'ldiki, u "innovatsion faoliyat" va "innovatsion tadbirkorlik" faoliyati tushunchalarini sinonim tushunchalar sifatida qo'llamoqda. Biroq, u ham yuqorida G.D.Otnyukovning ta'rifida ta'kidlab o'tganimizdek, o'z ta'rifida innovatsiyani ishlab chiqish jarayonini inobatga olmagan, shu sababli ham innovatsion tadbirkorlik faoliyati subyektlari sifatida faqatgina innovatsiyani amaliyotda qo'llayotgan shaxslar qaraladi, innovatsiyani ishlab chiqqan shaxslar emas.

G.G.Tuskayev esa boshqa yondashuvga amal qiladi, bu uning ishlarida namoyon bo'lgan. Keng ma'noda uning ishida innovatsion faoliyat "ishlab chiqarishni tashkil etish va tashkil etishga qaratilgan mahsulotlarning tubdan yangi yoki yangi iste'mol xususiyatlariga ega (tovarlar, ishlar, xizmatlar), yangilarini yaratish, joriy etish va qo'llash yoki uni ishlab chiqarishning mavjud usullarini (texnologiyalarini) modernizatsiya qilish va hokazo, ilmiy-texnologik va boshqa sohalarda yaratish, joriy etish va qo'llash jarayonlar va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, intellektual ijodiy faoliyat natijalari va boshqa ishlanmalar, xarajatlarni tejashni yoki yaratishni ta'minlashga qaratilgan faoliyat bunday tejash, bozorga raqobatbardosh tovarlarni chiqarish shartlari va ichki va tashqi bozorda sotiladigan xizmatlar" sifatida aks etgan.[17] Tor ma'noda esa innovatsion faoliyat deganda aynan innovatsion tadbirkorlik faoliyati tushunilgan. Unga ko'ra tizimli foyda olishga qaratilgan mustaqil faoliyat bo'lib, ishlab chiqarishni tubdan yangi yoki yangilari bilan yaratish va tashkil etishdan, yaratilishidan boshlab mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlar) iste'mol xususiyatlari, yangi yoki mavjud usullarni joriy etish va qo'llash (texnologiyalar) uni ishlab chiqarish, shu jumladan ilmiy-texnologik va boshqa sohalarda ilmiy

tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishdan, intellektual ijodiy faoliyat natijalari va boshqa ishlanmalar, keyin xarajatlarni tejashni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar mavjud yoki bunday tejash, bozorga chiqarish uchun sharoit yaratish ham ichki, ham sotiladigan raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar tashqi bozorda qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishidir.

G.G.Tuskayev o'zining ishida yana shuni ta'kidlab o'tadiki, innovatsiyani yaratish va ishlab chiqish innovatsion faoliyat doirasiga mansub bo'lsa, bunday natijalarni tijoratlashtirish bosqichi innovatsion tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

"Innovatsion faoliyat" va "innovatsion tadbirkorlik faoliyati" tushunchasiga nisbatan turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish ikkita asosiy yondashuv mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, bular: tor va keng. Tor yondashuvga muvofiq faqat innovatsiyalarni amalga oshirish faoliyati hisobga olinadi, keng yondashuvda esa innovatsiyalarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha, shuningdek, ularni amalga oshirish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Keng yondashuv innovatsion tadbirkorlik faoliyati tarkibini to'liq aks ettiradi.

Biroq, keng yondashuvga mos keladigan ta'riflarni tahlil qilish natijasida, ularning hech biri innovatsion tadbirkorlik faoliyati tarkibini to'liq aks ettirmasligi aniqladik. Shuning uchun innovatsion tadbirkorlik faoliyati bu tadbirkorlik faoliyatining bir turi ekanligini, boshqa mualliflar ta'riflarining afzalliklari va kamchiliklari hisobga olgan holda ta'rifni keng doiraga muvofiq shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

"Innovatsion tadbirkorlik faoliyati" tushunchasini yoritishimiz uchun avvalo "tadbirkorlik faoliyati" tushunchasiga to'xtalishimiz lozim. Negaki, "tadbirkorlik faoliyati" tushunchasi ushbu turdagi faoliyatning asosiy xususiyatlarini to'liqroq aks ettiradi, shu sababli ham "tadbirkorlik faoliyati" tushunchasini "innovatsion tadbirkorlik faoliyati" tushunchasining asosi sifatida olishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Rossiya Federatsiyasining xizmat ko'rsatgan yuristi, yuridik fanlar doktori G. F. Ruchkina o'z ishida "tadbirkorlik faoliyat" bu mol-mulkdan foydalanish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar taqdim etish, shuningdek boshqa qonuniy faoliyatdan mustaqil, professional, muntazam ravishda foyda olish maqsadida o'z tavakkalchiligi asosida amalga oshiriladigan faoliyati deb ataydi.[18] Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, "innovatsion tadbirkorlik faoliyati" bu – mustaqil, kasbiy faoliyat (shu jumladan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan faoliyat) bo'lib, ilmiy-texnik faoliyatni amalga oshirish natijasida muntazam ravishda foydani olishga qaratilgan va / yoki bunday faoliyat natijalarini yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot sifatida (mulk, xizmat, ish, intellektual faoliyat natijalari) amalga oshirish, xomashyo manbai, ishlab chiqarish usullarini yangisini kashf etish va/yoki undan foydalanish, shuningdek, bozorlar va sotish usullarini yangilarini kashf etishdir. Ushbu tushuncha mahsulotni yaratish va ishlab chiqish faoliyati bilan birga uni amalga oshirish faoliyatini ham o'z ichiga olib, keng yondashuvga mos keladi.

Ilgari ko'rib chiqilgan innovatsion tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga berilgan ta'riflarda "narsa", "tovar", "xizmat", "ishlar" kabi toifalarni o'z ichiga olgan mahsulot haqida so'z yuritildi. Biroq, bu yopiq ro'yxat bo'lib, bu holat kamchilik hisoblanadi, chunki bugungi kunda innovatsion tadbirkorlik faoliyati yuqori rivojlanish dinamikasi bilan ajralib turadi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyat tushunchasiga ta'rif berar ekanmiz yuqori rivojlanish tezligini va bozor uchun ham, huquqiy jihatdan tartibga solish uchun ham hali ma'lum bo'lmagan narsalar yaratilishi imkoniyati mavjudligini hisobga olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda "mahsulot" toifasini to'liq ochib berishimiz uchun "narsa", "tovar", "xizmat", "ish" kabi kategoriyalarni ishlatishimiz yetarli emas. Shuning uchun "mulk" kabi toifaning yuqoridagi ro'yxatga kiritilishi taklif etiladi. Bunga misol tariqasida esa dunyoga mashhur bo'lib ulgurgan "bitcoin"larni aytishimiz mumkin.

Xulosa. "Innovatsion tadbirkorlik faoliyati" tushunchasini yaratish uning belgilarini aniqlash ehtiyojini ham keltirib chiqaradi. Shuni hisobga olish kerakki, bu tadbirkorlik faoliyatining bir turi bo'lganligi uchun u tadbirkorlikning barcha belgilari bilan tavsiflanadi, shuningdek, innovatsion xususiyatga ega bo'lgan boshqa belgilar bilan ham ajralib turadi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatining quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1) Bevosita maqsad - tizimli daromad olish. Shuni ta'kidlash kerakki, tadbirkorlik faoliyatida foyda olish motivi o'zgarishsiz qoladi. Shunday qilib, bu maqsad innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirishda ham asosiy hisoblanadi;

2) Mustaqil faoliyat - bu faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs fuqarolik muomalasida bevosita o'z nomidan, o'z ixtiyori bilan va o'z manfaatlarini ko'zlagan holda qatnashadi;

3) Qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi;

4) Ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirishga yoki uning natijalarini yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (mulk, xizmatlar, ish, intellektual faoliyat natijalari) sifatida amalga oshirishga, ishlab chiqarish jarayoni natijalariga sezilarli darajada ta'sir qiladigan xomashyo manbaalarini yoki ishlab chiqarish usulini kash qilishga, shuningdek, yangi bozorlar va sotish usullarini kashf qilish va rivojlantirishga asoslanadi. Bu belgi innovatsion tadbirkorlik faoliyatni amalga oshirish jarayonida intellektual faoliyatning katta rolini aks ettiradi;

5) Professional faoliyat. Bu shuni anglatadiki, sharhlanayotgan faoliyat bilan maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

6) yuqori darajadagi tadbirkorlik riski. Innovatsion tadbirkorlik faoliyati intellektual faoliyatga asoslanadi, uning doirasida esa yakuniy natijaga erishish kafolatlanishi mumkin emas.

Qisqa xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tkazilgan tahlilimiz natijasida innovatsion tadbirkorlik faoliyatining ta'rifi, faoliyatning ushbu turini boshqa tadbirkorlik faoliyati turlaridan ajratish imkonini beruvchi innovatsion tadbirkorlik faoliyatining asosiy belgilari aniqlandi. Ushbu qoidalar innovatsion tadbirkorlik faoliyatining mazmunini aniqlashda yagona yondashuvni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni, 2022-yil 7-iyul
2. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_006357d023976c8.pdf

3. Балабанов И.Л. Инновационный менеджмент. СПб.: Питер, 2001
4. Ефимцева, Т.В. Место инновационного права в системе отраслей российского права : специальность 12.00.03 «Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право» автореферат на соискание ученой степени доктора юридических наук / Ефимцева Татьяна Владимировна ; Московский государственный юридический университет имени О.Е. Кутафина (МГЮА). Москва, 2014. – 48 с. – Библиогр.: с. 42-48.
5. Каспин, Л.Е. Развитие информационно-аналитического обеспечения инновационной деятельности холдингов : специальность 08.00.05 «Экономика и управление народным хозяйством» : диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук / Каспин Леонид Ефимович ; Поволжский государственный технологический университет. – Йошкар-Ола, 2018. – 164 с. – Библиогр.: с. 127-152.
6. Марданшина, Е.А. Правовое положение субъектов инновационной деятельности в сфере предпринимательства : специальность 12.00.03 «Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право» : диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук / Марданшина Евгения Айвазовна ; Институт государства и права Российской академии наук. – Москва, 2012. – 191 с. – Библиогр.: с. 167-191.
7. Лановая, Г.М. Инновации в праве: новшества или нововведения / Г.М. Лановая // Юридическая техника. - 2021. - №15. – С. 199-203.
8. Словарь С.И. Ожегова. Новшество. – Текст : электронный. URL : <https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=17199>
9. Кожуханов, Н.М. «Инновация в праве» как теоретико-правовая категория / Н.М. Кожуханов // Вестник Российской таможенной академии. –2011. – № 1. – С. 64-65. – ISSN 2072-7240. С 65
10. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni, 2020-yil 24-iyul
11. Волынкина, М.В. Правовое регулирование инновационной деятельности: проблемы теории / М.В. Волынкина.- М.: Аспект-Пресс, 2007. – 192 с.
12. Васильев А.Н. Анализ динамики инновационной активности экономики Российской Федерации за 2003 – 2016 годы // Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева. – 2018. - №1. - т.2. [Электронный ресурс] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-dinamiki-innovatsionnoy-aktivnostiekonomiki-rossiyskoy-federatsii-za-2003-2016-gody>

14. Бездудный Ф.Ф., Смирнова Г.А., Нечаева О.Д. Сущность понятия «инновация» и его классификация // Инновации, 1998. № 2-3. С.25
15. Российская Федерация. Законы. О науке и государственной научно-технической политике : федеральный закон [принят Государственной Думой 23 августа 1996 года]. – Справочно-правовая система «Консультант Плюс». – Текст : электронный. – URL http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_11507/
16. Отнюкова, Г.Д. Понятие и признаки инновационной деятельности / Г.Д. Отнюкова // Вектор юридической науки. – 2015. – № 1. – с. 42-49. – ISSN 2311-5998.
17. Сушкова, О.В. Гражданско-правовой режим инноваций в научно-технической сфере: на примере деятельности высших учебных заведений : специальность 12.00.03 «Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право» : диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук / Сушкова Ольга Викторовна ; Российская правовая академия Министерства юстиции Российской Федерации. – Москва, 2010. – 233 с. – Библиогр.: с. 190-233 103 с
18. Тускаев, Г.Г. Правовое регулирование инновационной предпринимательской деятельности в Российской Федерации : специальность 12.00.03 «Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право» : диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук / Тускаев Георгий Григорьевич ; Всероссийская государственная налоговая академия Министерства финансов Российской Федерации. – Москва, 2011. – 190 с. – Библиогр.: с. 175-190.19 с 19
19. Ручкина, Г.Ф. Финансово-правовое регулирование предпринимательской деятельности в Российской Федерации : специальность 12.00.14 «Административное право, финансовое право, информационное право» : диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук / Ручкина Гульнара Флюровна ; Академия управления МВД России. – Москва, 2004. – 552 с. – Библиогр.: с. 512-552. 175